MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA NAVRÖZ BAYRAMI MAROSIMLARI EVOLYUSIYASI VA MADANIY INTEĞRATSIYA MASALALARI

Ikramjon Maşaripov
Toşkent davlat iqtisodiyot universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi professori, siyosiy fanlar doktori (DSc)
Email: ikrommaşaripov1967@ğmail.com.
Durdona Xamroqulova
Toşkent davlat iqtisodiyot universiteti
Bank işi fakulteti 2-kurs BIA 85/25 guruhi talabasi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy tezisda Markaziy Osiyo davlatlarining umummintaqaviy ma'naviy-madaniy qadriyatlari, madaniy tadbirlar va marosimlar evolyusiyasi Navröz bayrami misolida qiyosiy tahlil etiladi. Tadqiqotda qadimgi animistik va zarduştiylik e'tiqodlarining islomiy axloq me'yorlari bilan sinkretik uyğunlaşuv bosqiçlari yoritilgan. Mustaqillik davrida Özbekiston, Qozoğiston, Qirğiziston, Tojikiston va Turkmanistonda Navröz bayramining qayta tiklanişi, milliy özlikni anglaş, nomoddiy madaniy meros muhofazasi hamda mintaqaviy integratsiya va madaniy diplomatiyani mustahkamlaşdagi strategik örni oçib berilgan.

Kalit sözlar: Markaziy Osiyo, Navröz bayrami, madaniy integratsiya, milliy qadriyatlar, sinkretizm, nomoddiy madaniy meros, madaniy diplomatiya, urf-odatlar.

Markaziy Osiyo ğeosiyosiy va ğeomadaniy makoni qadimdan ötroq dehqonçilik va köçmançi çorvaçilik sivilizatsiyalari tutaşgan, turli etnik guruhlarning madaniy va ma'naviy integratsiyasi şakllangan betakror mintaqadir [1]. Mazkur hududda yaşovçi xalqlarning etnomadaniy tarixi, an'anaviy turmuş tarzi va ma'naviy qadriyatlari çuqur umumiy ildizlarga ega bölib, ularning içida bahorgi tenğkunlik bayrami – Navröz markaziy örin tutadi.

Globallaşuv va madaniy unifikatsiya kuçaygan hozirgi davrda milliy-ma'naviy özlikni saqlab qoliş, nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini asrab-avaylaş hamda mintaqa davlatlari örtasidagi madaniy-gumanitar hamkorlikni çuqurlaştiriş dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [2]. Navröz şunçaki mavsumiy bayram emas, balki Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy xotirasi, jamiyatning ijtimoiy jipslaşuvi va mintaqaviy birdamligini mustahkamlovçi qudratli madaniy vositadir.

DOI: 10.5281/zenodo.24240424

Insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqiçlarida odamlar tabiat sirlarini anglaşga intilar ekan, turli e'tiqodlar – fetişistik, totemistik, animistik va politeistik qaraşlar yuzaga kelgan. Bu e'tiqodlar asosida "yomğir tilaş", "şamol çaqiriş", "quyoşga siğiniş", "qurbonlik qiliş" kabi marosimlar cakllanib, ular jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan. Ayniqsa, Zarduştiylik davrida uşbu e'tiqodlar tizimlaştirilib, yaxşilik va yoruğlik (Axura Mazda) hamda yomonlik va zulmat (Ahriman) örtasidagi samoviy kuraş konsepsiyasi bilan boyidi [3]. "Avesto" matnlarida kunduz va keçaning tenglaşişi hayotning qayta tirilişi ramzi sifatida uluğlangan.

Qadimgi Şarq qomusiy olimlari Navrözning mohiyatini çuqur yoritib berganlar. Jumladan, Abu Rayhon Beruniy özining fundamental "Qadimgi xalqlardan qolgan yodğorliklar" asarida Navrözni yilning boşlanişi, yaratilişning ibtidosi va tabiat uyğonişi sifatida ta'riflab, uning ilk zarduştiy şohlar – Jamşid va Kayumars davriga borib taqalişini ilmiy asoslab beradi [4]. Şoir va olim Umar Xayyom esa "Navröznoma" asarida quyoş yili hisobi böyiça Hamal burjiga kiriş kunini bayram sifatida nişonlaşning falsafiy va falakiyotga oid asoslarini bayon etgan [5].

VIII asrdan boşlab mintaqaga islom dinining kirib kelişi madaniy hayotga sezilarli ta'sir körsatdi. Islom dini Markaziy Osiyoda ildiz otgan tabiiy-mavsumiy bayramlarni butunlay siqib çiqarmadi, balki ularni şariat va islomiy axloq me'yorlari bilan sinkretik (yunonça synkretismos "birlaşiş", "qöşiliş" aslida bir-biriga öxşamaydigan, kelib çiqişi turliça bölgan qaraşlar, dinlar, madaniyatlar yoki urf-odatlarning bir-biriga qorişib, uyğunlaşib yaxlit bir holga kelişidir) tarzda boyitdi.

Bu jarayonda quyidagi ijtimoiy-ma'naviy transformatsiyalar röy berdi:

Saxovat va xayriya marosimlari: Ehson, silai rahm (qarindoş-uruğlarni ziyorat qiliş), etim-yesir va yordamga muhtojlarga taom tarqatiş islomiy fazilatlar sifatida bayramning boş mazmuniga aylandi.

Ajdodlar ruhini yod oliş: Bayram arafasida va kunida qabristonlarni tozalaş, marhumlar haqiga qur'on tilovat qiliş ("fotiha öqiş") odati an'anaga aylandi.

Ramazon va Navröz uyğunligi: Navröz bahoriy yangilaniş ramzi sifatida muqaddas Ramazon oyiga töğri kelganda milliy va diniy qadriyatlar uyğunlaşib, jamiyatda bağrikenğlik va ma'naviy yuksaliş muhitini mustahkamlaydi.

Amir Temur va temuriylar davrida Navröz umumdavlat miqyosidagi yirik tantana sifatida ötkazilgan. Samarqand va Hirot boğlarida katta sayillar, musobaqalar, şe'riyat va musiqa anjumanlari taşkil etilgan. Keyingi xonliklar davrida ham Navröz özining umumxalq bayrami xususiyatini saqlab qoldi.

Şörolar (sovet) hokimiyati yillarida totalitar mafkura milliy özlik va milliy an'analarga qarçi izçil siyosat olib bordi. Navröz bayrami rasman "din sarqiti",

"ötmiş qoldiği" va "mafkuraviy xavf" sifatida taqiqlandi yoki uning kölami keskin çeklandi [6].

Ammo xalq Navrözni öz xonadonlarida, mahalla va ovullarda "Bahor bayrami" yoki "Mehnat bayrami" nomi ostida yaşirin va yarim rasmiy ravişda nişonlab, uning rituallarini (sumalak tayyorlaş, uruğ qadaş, keksalarni ziyorat qiliş) saqlab qoldi.

1991 yilda mintaqa davlatlari davlat mustaqilligiga erişgaç, milliy-ma'naviy merosni tiklaş davlat siyosatining ustuvor yönalişiga aylandi. Markaziy Osiyoning beşta davlatida Navröz bayrami özига xos milliy xususiyatlar bilan nişonlanmoqda:

Özbekistonda Navröz davlat bayrami sifatida katta milliy istirohat boğlari va maydonlarda umumxalq sayillari bilan nişonlanadi. Boş ijtimoiy böğin bölgan mahalla instituti orqali xayriya tadbirlari, haşarlar, muhtojlarga yordam körsatiş taşkil etiladi [7]. Marosim taomi bölgan sumalak va halim pişiriş milliy hamjihatlikka xizmat qiladi. Baxşiçilik, askiya, maqom san'ati ijrolari, polvonlarning kuraş musobaqalari va çavandozlarning uloq-köpkari öyinlari bayramning asosiy atributlari hisoblanadi.

Qozoğistonda "Naurыz meyramы" köçmançi çorvaçilik madaniyati an'analari bilan uyğunlaşadi. Mamlakatda 14 martdan "Kөrisu kүni" (amal bayrami) boşlanib, 10 kunlik "Naurыznama" konsepsiyasi doirasida milliy madaniyat keng tarğib qilinadi [8]. Bayramning asosiy ramzi – etti xil mahsulotdan tayyorlanadigan "Naurыz koje" dir. Tantanalarda ötovlar qurilib, "kөkpar", "qazaq kүresi", "altыbaqan" (milliy arğimçoq) va oqinlar aytişuvi ötkaziladi.

Qirğizistonda "Nooruz" tabiat uyğonişi va pokizalik ramzidir. Tonğ saharda oqsoqollar va onalar arça şoxini tutatib, xonadon va odamlarni yomon ruhlardan xalos etiş maqsadida "Alas, alas, ar baleeden kalas!" deya "Alas" tozalaş ritualini bajaradilar [9]. Asosiy taom sifatida «sүmөlөk» qaynatiladi. Qişloq va şahar maydonlarida "manasçilar" tomonidan "Manas" eposidan parçalar ijro etiladi, "kөk bөrү" va "er eңiş" (ot ustida kuraş) kabi qadimiy otliq musobaqalar uyuştiriladi.

Tojikistonda Navröz qadimiy fors-tojik an'analari va zarduştiylik ildizlari bilan çambarças boğliqdir. Bayramda ramziy "Haft sin" (nori s harfidan boşlanuvçi 7 ta ne'mat: sabza, sirko, sib va h.k.) va «Haft şin» dasturxoni bezatiladi. "Sumanak" tayyorlaş ayollar sayli va qöşiqlari bilan ötadi. Şuningdek, bolalar va yoşlar tomonidan toğyonbağirlaridan boyçeçak terib kelinib, xonadonma-xonadon "Ğulgardonӣ" (boyçeçak sayli) qöşiqlarini kuylaş an'anasi keng tarqalgan.

Turkmanistonda "Novruz bayramы" milliy bahor va tabiat uyğonişi bayrami sifatida nişonlanadi. Marosim taomi bölgan "semeni" pişiriladi [10]. Bayram tadbirlarida turkman gilamçilik san'ati körgazmalari, maşhur axalteke tulporlari paradi va poygalari hamda milliy "ğoreş" belboğli kuraşi keng namoyiş etiladi.

Navröz bayrami XXI asrda mintaqaviy çegaralardan çiqib, xalqaro darajadagi madaniy diplomatiyaning muhim poydevoriga aylandi:

YUNESKO e'tirofi: Markaziy Osiyo davlatlari hamda mintaqa bilan qöşni mamlakatlarning hamkorlikdagi taşabbusi natijasida 2009 yilda Navröz YUNESKOning "Insoniyat nomoddiy madaniy merosi reprezentativ röyxati"ga kiritildi [2, 118].

BMT rezolyusiyasi: 2010 yil 23 fevralda BMT Boş Assambleyasining 64-sessiyasida maxsus rezolyusiya qabul qilinib, 21 mart "Xalqaro Navröz kuni" deb e'lon qilindi [11].

Mintaqaviy birlikni mustahkamlaş: Hozirgi kunda Navröz Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining Maslahat uçraşuvlari kun tartibida madaniy-gumanitar hamkorlik, çegaraoldi hududlar örtasidagi döstlik sayillari va turizm aloqalarini rivojlantiruvçi muhim omil bölib xizmat qilmoqda [12].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ildizlari qadim tarixga borib taqaladigan milliy qadriyatlarimiz buğungi kunda ham öz ahamiyatini yöqotmagan. Aksinça, ular zamonaviy jamiyat hayotida yanada muhim örin egallab, xalqimizni birlaştiruvçi, ma'naviy yuksalişga undovçi omil bölib xizmat qilmoqda. Navröz bayramining muqaddas Ramazon oyiga töğri kelişi esa milliy va diniy qadriyatlar uyğunligining yorqin ifodasi сифатида алоҳида рамзий маъно касб этади.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 280 б.

2. ЮНЕСКО ва Марказий Осиё: Номоддий маданий мерос муҳофазаси масалалари. Халқаро илмий мақолалар тўплами. – Париж-Тошкент: ЮНЕСКО нашри, 2016. – 195 б.

3. Саъдуллаев А.С., Мавлонов Ў.М. Қадимги Марказий Осиё тарихи ва маданияти. – Т.: Университет, 2012. – 312 б.

4. Абу Райҳон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Танланган асарлар. 1-жилд. – Т.: Фан, 1968. – 486 б.

5. Умар Хайём. Наврўзнома / Форс тилидан таржима, кириш сўзи ва изоҳлар муаллифи: Ҳ. Болтабоев. – Т.: Мерос, 1990. – 88 б.

6. Шаниязов К.Ш. К вопросу о традиционных праздниках народов Средней Азии и Казахстана. – Т.: Фан, 1989. – 148 с.

7. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Т.: Ўзбекистон, 2021. – 464 б.

8. Толыбаева К. Традиционная обрядовая культура казахов: история и современност. – Алматы: Ғылым, 2018. –210 с.

9. Акматалиев А. Кыргыз элинин каада-салттары жана маданий мурасы. – Бишкек: Илим, 2015. – 240 б.

10. Аннамурадов А. Традиции и обычи туркменского народа в эпоху возрождения. –Ашхабад: Туркменская государственная издателская служба, 2019. –180 с.

11. БМТ Бош Ассамблеяси Резолюцияси. «Международный ден Навруз» (A/PEC/64/253). 23 февраля 2010 года.

12. Марказий Осиёда минтақавий хавфсизлик ва маданий интеграция истиқболлари. Илмий таҳлилий тўплам. – Т.: ТДШУ, 2023. –244 б.